Аннотация: Узбекистан, стремительно развивающийся сегодня, на протяжении многих лет позиционировал себя в международной экономической среде как аграрная страна. В основном мы продаем хлопок, пшеницу, фрукты и овощи, а также рис на международных рынках. В последние годы особое внимание уделяется сельскому хозяйству и растет спрос на высокоценные культуры на международном рынке, с одной стороны, принимая во внимание тот факт, что представлять высокоценные растения на международном рынке выгодно и выгодно., сегодня лекарственные. Вопрос выращивания растений и их представления на отечественном рынке занимает особое место в нашей повестке дня. В данной статье речь идет о сегодняшних требованиях к лекарственным растениям на международном рынке и о предложениях, которые им представляет наша страна. Здесь также упоминается маркетинговый опыт предложения на международном рынке в правильном направлении. В первую очередь было обращено внимание на размеры и состояние лекарственных растений, выращиваемых сегодня в нашей стране, изучены угрозы и их причины в процессах предложения на внутренний и внешний рынок. При этом в исследовании критически рассмотрена система рынка растений, основанная на лекарственных растениях, с особым упором на цепочку создания стоимости функций или выращивания для составления карты отрасли. Для понимания рыночной системы были изучены ее сильные и слабые стороны с целью ее фундаментального аналитического обобщения, а также рассмотрены результаты ряда научных исследований и основанные на них прогнозы на будущее. При этом были проанализированы результаты и представлены полезные идеи для развития.

Ключевые слова: Торговля лекарственными растениями, международный рынок, спрос и предложение, рейтинг стран, экономическая прибыль, торговля, Внешний рынок, занятость населения страны, маркетинг.

KIRISH

Dorivor o'simliklar har qanday davrda iqtisodiyot, tibbiyot sohalarida alohida e'tirofli o'rinda turgan. Hozirgi vaqtda turli xil hildagi dorivor hushb o'y o'simliklardan dunyo aholisining to'rtidan uch qismidan ko'prog'i foydalanayotgani taxmin qilinmoqda ^[1]. Ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda tijorat dori-darmonlari va farmasevtika preparatlari taxminan 60% hollarda o'simliklardan kelib chiqadigan faol komponentlarni o'z ichiga oladi ^[2]. Dorivor o'simliklar ekotizimimizning muhim qismlaridir, shuning uchun biologik xilma-xillikni saqlash va qo'llab-quvvatlash uchun barqaror boshqaruv va tijoratlashtirish o'rtasidagi kelishuvni tasdiqlash uchun yovvoyi dorivor va hushb o'y o'simliklarni yetishtirish va ularni barqaror hosilini yig'ish amaliyotidan foydalanish kerak. Dorivor o'simliklarga talab har doim kuchli bo'lgan. Xususan, so'nggi yillarda ekologik holatning yomonlashib borayotganligi va bir vaqtda insonlar turmush tarzi yaxshilanib borayotgani tufayli yer yuzi aholisi sekin astalik bilan o'z sog'liklariga alohida e'tibor berishni boshlashgan. Insonlar kasallikni davolashni emas balki, uni oldini olishni ko'proq afzal ko'rishmoqda. Ayollar ham, erkaklar ham, bir vaqtning o'zida yosh, jozibador va uzoq umr kechirishni istashmoqda, bu esa o'z navbatida davolovchi dori darmonlar emas, balki biologik faol qo'shimchalar yoki tabiiy mahsulotlarga bo'lgan talabni oshiradi, bu esa o'z o'zidan dorivor o'simliklar, ekinlar, dorivor mevalar va sabzavotlarga bo'lgan talabni oshiradi.

FAO (Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti) hisob-kitoblariga ko'ra, butun dunyo bo'ylab 330 million tonna dorivor va hushb o'y o'simliklarni ishlab chiqarish uchun 77 million akr yer ishlatililib kelinmoqda va bu ko'rsatkich yildan yilga oshib bormoqda ^[3]. Bu esa 31160794,452 gektar yer maydonlari degani. Har bir mahsulot bo'yicha yetakchi import va yetakchi eksport qiluvchi davlatlari bor. Dorivor o'simliklarga nisbatan eng yuqori talab ko'rsatayotganlar bugungi kunda Yaponiya, AQSH va Yevropadir, ular bugungi kunda dunyoning dorivor o'simliklarga nisbatan asosiy iste'molchilari hisoblanishadi, Hindiston va Xitoy esa Osiyodagi eng muhim dorivor o'simliklarni yetkazib berish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni egallab turibdi ^[4]. 2022-yilda o'simlik dori vositalarining global bozori 165.66 milliard dollarni tashkil etgan va 2033-yilga qadar bu k o'rsatkich taxminan 600 milliard dollarga yetishi mumkinligi tahmin qilinmoqda ^[5] (bu haqida maqolada prognozlar taqdim etiladi). Oregano, bibariya, adachayi, sh o'r, yalpiz, timyan va dafna barglari kabi quruq o'tlarni butun o'simlik yoki kukun shaklida hisobga oladigan bo'lsak, global bozor 2022 yildagi 5,8 milliard dollarlik k o'rsatkichdan 2023-yilda 6,17 milliard dollarga o'sdi bu degani yillik o'sish sur'ati 6,3% ni tashkil etdi va 2027-yilga qadar bu k o'rsatkich 7,93 milliard dollarga yetishi kutilmoqda ^[6]. Dunyoning ko'plab mamlakatlari xalqaro bozorda yuqori qiymatli dorivor o'simliklarga yetishtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bizda sir emaski dorivor o'simliklar asrlar davomida O'zbekiston sivilizatsiyasining muhim qismlari sifatida rivojlangan. O'simliklar va ekinlar uchun qulay iqlim sharoitlari har qanday turdagi sifatli o'simliklarni yetishtirishga imkon bergan. Bugungi kungi ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Markaziy Osiyoni dorivor o'simliklar dunyosi b o'yicha qo'shni mintaqalari bilan taqqoslaydigan bo'lsak, O'zbekistonning tog'laridagi maydon birligiga nisbati b o'yicha o'simliklar soni bir necha baravar k o'proqni tashkil etadi ^[7]. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham dorivor o'simliklarni yetishtirish va ulardan samarali foydalanishga alohida siyosiy darajada e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.05.2022-yildagi PQ-251-sonli "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda ulardan keng foydalanishda tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2022–2026-yillar uchun har bir viloyat, har bir sohada dorivor o'simliklarga nisbatan alohida e'tibor qaratilishi belgilab o'tilgan. Bunda farmasevtika sohani rivojidan tortib xalqaro bozorlarda milliy brendni yuksaltirishga bo'lgan ishlarni maqsad qilib olingan ^[8].



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dorivor o'simliklarning iqtisodiyotdagi o'rni haqida har bitta iqtisodchi olim t o'xtalib o'tgan bo'lsa, marekologlar dorivor o'simliklar bozorini tubdan tahlil qilishgan. 1998-yil 22–23-iyunda Yevropada Royal botanic gardens, Kew Britanic kingdom, Traffic Europe tomonidan tashkil etilgan “Yevropada savdoda dorivor o'simliklarni saqlash bo'yicha birinchi xalqaro simpozium.” bo'yicha birinchi xalqaro simpoziumda Albaniya, Bolgariya, Frantsiya, Germaniya, Vengriya, Ispaniya, Turkiya va Buyuk Britaniya va hattoki Arika q o'shma shtatlaridan vakillar ishtirok etdi[9]. Dorivor o'simliklar savdosiga nisbatan bunday e'tibor esa keyinchalik Yevropa, Aqsh, Afrika mamlakatlari olimlari, savdogarlari va marketologlari ushbu mavzuga alohida to'xtalishiga turtki bo'ldi. Afrika mamlakatlarida bunga qadar dorivor o'simliklarni yetishtirish va sotuvga tayyorlash bilan shug'ullanishni boshlagan olimlarning ilmiy ishlari tez sur'atda darslik va o'quv qo'llanma sifatida ta'lim muassasalarida taqdim etila boshlandi. Xususan, Myles Mander tomonidan taqdim etilgan “Janubiy Afrikada mahalliy dorivor o'simliklarning marketing” nomli o'quv qo'llanmada KwaZulu-Natalda dorivor o'simliklar tarixi, ularning ustida ishlagan olimlarning ilmiy ishlari, mahalliy aholining xalq orasida mashhur dorivor o'simliklar savdosiga yondashishi haqida chuqur izlanilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar keltirilgan. Misol tariqasida 1998-yillar mobaynida Janubiy Afrikada 700 dan ortiq o'simlik turlari faol ravishda sotilishi va ularning katta qismi yovvoyi holda o'sishi shu bilan bir qatorda yovvoyi zaxiralarni intensiv yig'ish mintaqadagi bioxilma-xillikka jiddiy tahdidlar solishi mumkinligiga alohida to'xtalib o'tgan ^[10]. 1998-yillardan so'ng nafaqat ilm fan xususan marketing sohasida ham bir qancha o'zgarishlar b o'ldi. 2000-yillardan keyingi darsliklar va o'quv qo'llanmalarda dorivor o'simliklar bozori alohida marketing va menejmentga suyanan holda bozor tahlillari amalga oshirilgan. 2007-yil A.K.M. Shahidullah “Bangladeshda aholi turmush tarzini yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta'minlashda dorivor o'simliklarning roli” nomli ilmiy ishida bozor strukturasi, savdoda mahsulotlarning kuchli va kuchsiz tomonlari va SWOT tahlillari keltirib o'tilgan ^[11].

Zamonaviy adabiyotlar ma'lumotlarga yondashadigan bo'lsak sekin astalik bilan dorivor o'simliklarning mamlakatlar iqtisodiyotidagi muhim roliga va ularning iqtisodiy foydalariga to'xtalamiz. 2023-yil dekabr oyida Michael Asigbaase tominidan olib borilgan Ganadagi Asukese va Amama o'rmon qo'riqxonalaridagi tadqiqot ishlari “Dorivor o'simliklarni saqlash va ularning iqtisodiy foydalari: Janubi-g'arbiy Gananing o'rmon chekkasidagi jamoalardan olingan ma'lumotlar asosida” nomi bilan Scopus bazasida ko'rinish berdi ^[12]. Bunda dorivor o'simliklarning hozirgi ahvoli va ularni saqlab qolishga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilgan. Bunda k o'rsatilgan mahalliy dorivor o'simliklarning mavjudligi tendentsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar uch balli Likert shkalasi yordamida qayta ishlangan; ko'p (1), o'rtacha mavjud (2) va kamdan-kam bo'lib qoldi (3). Shunga o'xshab, dorivor o'simliklarni yo'qotish sabablari va ularni saqlash strategiyalari besh balli Likert shkalasi yordamida qayta ishlandi va tahlil qilindi; bunda mutlaqo qo'shilmayman (1), qo'shilmayman (2), befarq (3), roziman (4) va to'liq roziman (5). Ushbu ko'rsatkichlar ijtimoiy-demografik xususiyatlar bo'yicha o'rtacha hisoblangan ^[13].

Dorivor o'simliklar haqida gap ketganda Hindiston olimlari ishlariga alohida e'tibor qaratmasdan iloj yo'q, sababi Hindiston tarixdan dorivor o'simliklar vatani hisoblangan. Preet Amol Singh o'z shogirtlari bilan Hindistonning Panjob shtati dorivor o'simliklar sektoridagi qiyinchiliklar va imkoniyatlarni yaxshiroq tushunish, shuningdek, sohani tashkil etish va uzluksiz ishlashi uchun mavjud bilimlarga asoslangan tavsiyalar berish uchun o'tgazilgan ilmiy ishlar va o'rganishlar natijasi 2022-yil dekabr oyida Skopus bazasi jurnallaridan biri “Journal of Applied Research on Medicinal and Aromatic Plants” taqdim etildi. Ushbu ilmiy maqoladan izlanishlar aynan dorivor o'simliklar targ'ibotiga qaratilgani sezish mumkin. Ilmi ishda dorivor o'simliklar savdosi, ulardan kelayotgan daromadlar, bundan tashqari dorivor o'simliklarda qishloq xo'jaligi amaliyotlariga ham alohida to'xtalib o'tilgan ^[14]. Bundan tashqari, Shohana Parvin “Dunyoda dorivor va aromatik o'simliklarning potentsial roli va xalqaro savdosi” nomli ilmiy maqolasini taqdim etdi. Unda dorivor o'simliklar xalqaro savdosiga alohida to'xtalib o'tilgan ^[15]. Global bozor tahlillari va prognozlari haqida taqdimotlarni Fact.MR havolalarida uchratish mumkin ^[16].

NATIJALAR VA MUNOZARA

Ohirgi 10-15 yillik adabiyotlarni o'rganib chiqish bilan bir qatorda, so'nggi yillardagi eng yangi ilmiy ishlar va tadqiqotlar natijalari ayniqsa iqtisodiy passiv bo'lgan mamlakatlardagi ahvol bilan tanishib chiqamiz. Jumladan, Michael Asigbaase o'z ilmiy ishida e'tiborga loyiq natijalar bilan bo'lishgan. Ganadada joylashgan va ilmiy tadqiqot olib borilgan ikki o'rmon qo'riqxonasining chekka jamoalarida turli kasalliklar va kasalliklarni davolashda ishlatiladigan dorivor o'simliklar 143 turdan (54 oila) iborat va ular 135 ta kasalliklarni davolash uchun ishlatilishi haqida ma'lumotlarni keltirib o'tgan ^[17]. Shu bilan bir qatorda, dorivor o'simliklarda mas'ul shaxslar daromadiga sezilarli hissa qo'shgan va ba'zi hollarda u hattoki asosiy yoki yagona daromad manbayi bo'lgan (1-jadval).

1-jadval: Dorivor o'simliklardan foydalanishdan olingan yalpi yillik daromad ^[18]

O'zgaruvchan	Kategoriya	N	O'rtacha	Median
Jins	Erkak	112	947.87	980.16a
	Ayol	60	1047.84	746.79a
Oilaviy ahvol	Uylangan	102	1128.75	1120.19a
	Yagona	39	593.02	420.07b
	Beva qolgan	19	977.95	770.13ab
	Ajrashgan	11	1005.62	420.07b
Ta'lim darajasi	Boshlang'ich	33	990.77	980.16a
	O'rta maktab	54	956.83	1120.19a
	Texnik-kasb-hunar o'rta maktabi	57	1123.87	700.12a
	Oliy	7	1280.21	1120.19a
	Rasmiy ta'lim y o'q	21	554.56	420.07a
Tug'ilganligi	Mahalliy	117	936.09	840.14a
	Immigrant	54	1082.00	910.15a
Dini	Xristian	140	988.90	910.15a
	Musulmon	21	1087.98	1120.19a
	An'anaviy	7	511.09	420.07a
	Boshqa	2	1330.22	1330.22a
Kasb-hunar	Fermer	102	631.20	455.08c
	Tijoratchi/sotuvchi	29	2054.48	1400.23a
	O'simlikshunos	39	1101.77	1120.19b
	Gomeopat	2	1050.18	1050.18bc
Oila boshlig'ining turi	Matrearhal	23	1216.45	700.12a
	Patriarhal	147	954.91	840.14a

Eslatma: 8,57 GH¢ = 1 AQSh dollari (Gana banki kursi, 2022 yil dekabr). Har bir o'zgaruvchining median qiymatlari bir xil harflar bilan o'xshash va turli qiymatlarga ega bo'lganlar sezilarli darajada farq qiladi.

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki erkaklar va ayollar dorivor o'simliklardan foydalanish nisbati 1,87:1 ni tashkil etmoqda, bu esa o'z navbatida erkaklar ayollarga nisbatan dorivor o'simliklardan ko'proq foydalanishini ko'rsatadi. Jadval taqdim etayotgan ma'lumotlardan shuni bilish mumkinki, dorivor o'simliklarga mas'ul shaxslarga nisbatan ko'rsatkichlar asosan mahalliy aholi, nasroniylar va fermerlarda yuqoridir. Oila yetakchiligining asosiy shakli patriarxal bo'lgan oilalar mas'ul shaxslarning katta qismi tashkil etar ekan(147), lekin jadvalda ko'rsatilgandek ba'zi oilalar (23 oila) matriarxal rahbarlik turiga mansubdir. Mas'ullarning ko'pchiligi (84%) ma'lumotga ma'lumotga ega bo'lgan bir vaqtda ulardan 12% esa rasmiy ma'lumotga ega emas degan ma'lumot taqdim etilgan; Savodlilarning bir qismi atiga 4% oliy ma'lumotga ega. Javobgarlarning 59 foizi turmush qurgan, 41 foizi esa oilaga ega emas ya'ni, turmush qurmagan, beva va ajrashganlar. Iqtisodiy rivojlanmagan mamlakatlar uchun dorivor o'simliklarni yetishtirish va sotish faqat iqtisodiy foyda emas balki eng avvalo aholining bir qismini ish bilan ta'minlab turishdir.

Xalqaro miqyosda dorivor o'simliklar savdosi bo'yicha tadqiqotlar natijalariga nazar solamiz. Yuqorida aytib o'tilganidek, Dorivor o'simliklar va hushbo'y o'simliklar uchun milliy, mintaqaviy va hattoki global bozorlarda talab ortib bormoqda. Dorivor o'simliklar vositalarining eng katta bozorlari Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Italiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya va Ispaniyada joylashgan. Asosiy import bozorlari AQSh va Yevropa Ittifoqidir. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati, jumladan, Xitoy va Hindiston kosmetika, parfyumeriya, o'simlik toniklari va shunga o'xshash boshqa mahsulotlarni eksport qilganligi sababli, ushbu sektorda kamaygan mamlakatlar eksportini rivojlantirish istiqbollari mavjud ^[19]. Maqola kirish qismida 2022-yil natijalar va taxminiy prognozlar keltirib o'tilgandi. Ilmiy havolalar bu kabi bir nechta prognozlarni taqdim etgan va bazi bir prognozlarga nazar solsak Fact.MR 2023-yil natijalariga asoslangan holda 2033-yilga qadar (ya'ni 10 yil) bo'lgan vaqt mobaynida kutilishi mumkin bo'lgan natijalarga "Dorivor o'simliklar bozorining istiqbollari (2023–2033)" nomi ostida ilmiy havola orqali prognozlarni taqdim etdi. Unga ko'ra 2023-yilda butun dunyo bo'ylab dorivor o'simliklar savdosi 328 milliard dollarga baholangan bo'lsa, 2033-yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 555 milliard dollarga ko'tarilishi prognoz qilingan ^[20]. Quydagi jadvalga nazar tashlaymiz.



2-jadval: Dorivor o'simliklar bozori uchun 10 yillik prognoz (2023-2033) ^[21]

Xossalari	Tafsilotlar
Dorivor o'simliklar bozori hajmi (2023)	328 milliard AQSh \$
Prognoz qilingan bozor qiymati (2033)	555 milliard AQSh \$
Global bozor o'sish sur'ati (2023-2033)	5.4% o'rtacha
Kosmetik maqsadlarda foydalanish uchun dorivor o'simliklarga bo'lgan talabning o'sishi	7% o'rtacha
Asosiy kompaniyalar profili	Zielpol Herbs Zaparozhye Falcon Trading Company Wellgreen Technology Co.Ltd. Penn Herb Company Ltd. Mountain Rose Herbs Jahrom Green Kian. Elmar D.O.O. Himalayan Bio Trade Pvt. Ltd. Starwest Botanicals Sunrise Nutrachem Group Co. Ltd. Piante Officinali San Marco Yogi Globals Shanxi Hongda Phytochemistry Co. Ltd.

Jadvaldan ko'rish mumkinki dorivor o'simliklar bozorida sezilarli o'sishlar taxmin qilingan. 2023-yilgi va 2033 yilgi natijalar orasida o'rtacha 5.4% o'rtacha o'sish surati taxmin qilinmoqda. Bu esa, o'z navbatida, bugunga qadar o'sish holatiga nazar solish bilan o'lgan albatta, demak xalqaro bozorda dorivor o'simliklar savdo qoniqarli natijalarni kutmoqda. Shu bilan bir qatorda, dorivor o'simliklarga bo'lgan talab nafaqat dori-darmon uchun balki kosmetik maqsadlar uchun sezilarli o'sishni kutmoqda. Bu esa jadvalda taxminiy o'rtacha 7%, deb berilgan.

DBMR sayti 2023-yil sentabr oyida o'zining dorivor o'simliklar bozori uchun 2030-yilga qadar o'sish prognozini taqdim etdi. Natijalar 2022-yil natijalariga asoslangan holda 2023-2030-yillarga prognoz taqdim etilgan.

Quyidagi jadvalga nazar solamiz.

3-jadval: Dorivor o'simliklar bozorining ko'lami va segmentatsiyasi ^[22]

HISOBOT METRIKASI	TAFSILOTLAR
Prognoz davri	2023-2030
Asosiy yil	2022
Tarixiy yil	2021 (2015-2020 yillarga moslashtirilgan)
Miqdoriy birliklar	Daromad milliard AQSH dollarida, hajmi birliklarda, narxlash AQSH dollarida
Qamrab olingan segmentlar	Dorivor o'simliklar turi (Shandra vulgaris, klyukva, Ekinezya, Kurkumin, "yashil" choy o'simligi, qora kohosh, Aloe Vera, Zanjabil, Kokos palmasi, Dolchin, Sarimsoq), Turkum Begona o'simliklari, O'simlik mahsulotlari, O'simlikshunoslik, O'simlik q o'shimchalari, shakli (ekstraktlar, kukunlar, kapsulalar va siroplar), manba (barglar, ildiz va qobiqlar, butun o'simliklar, mevalar), tarqatish kanallari (kasalxona va chakana dorixonalar va elektron tijorat)
Qamrab olingan mamlakatlar	AQSh, Kanada, Meksika, Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Niderlandiya, Belgiya, Shveytsariya, Turkiya, Rossiya, Qolgan Yevropa, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Avstraliya, Singapur, Malayziya, Tailand, Indoneziya, Filippin, Osiyo-Tinch okeanining qolgan qismi, Braziliya, Argentina, Janubiy Amerikaning qolgan qismi, Janubiy Afrika, Saudiya Arabistoni, BAA, Misr, Isroil, Yaqin Sharq va Afrikaning qolgan qismi
Qamrab olingan bozor ishtirokchilari	Arizona Natural (AQSh), Arkopharma (Fransiya), Bio Botanica, Inc. (AQSh), Bionorica SE (Germaniya), Gaia Herbs (AQSh), Glanbia PLC (Irlandiya), Herb Pharm (AQSh), Herbalife International of America, Inc. (AQSh), Hevert (AQSh), The Himalaya Drug Company (Hindiston), i-Health, Inc. (AQSh), Indfrag Biosciences (Hindiston)
Bozor imkoniyatlari	Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar sonining ko'payishi Yangi o'simlik preparatlarini ishlab chiqilishi.



DBMR o'z hisobotlarida bozor sharoitlari, talablar, ishtirokchilar va boshqa omillarga chuqurroq yondashgan. Davlatlar qamrovini ham kengroq olgan bo'lsa, Fact.MR o'z prognozlarida doimiy ravishda iqtisodiy, satistik yondashuvlarga ko'proq to'xtaladi.

XULOSA

Umuman olganda dorivor o'simliklarga bo'lgan talab va taklif holatlari har bitta iqtisodchi uchun va dorivor o'simliklarni yetishtiruvchi mamlakatlar uchun esa talabni o'rgangan holda, takrorlanmas taklifni taqdim etish muhimroqdir. Bugungi kunda o'simlik yoki ekin ekish uchun yerga ega mamlakatlarning deyarli barchasi dorivor o'simliklarni yetishtirish va ulardan iqtisodiy Farmasevtik, tibbiy, kosmetik maqsadlarda foydalanishni maqsad qilishgan.

Bugungi kunda bozor holati va kelgusidagi prognozlar o'sish holatlarini taxmin etmoqda, shu bilan bir qatorda kelgusida, ya'ni yaqin 10 yillikda kuzatilishi mumkin bo'lgan qurg'oqchilik, global isish holatlarini hisobga olgan holda:

- Xalqaro bozorni suv kam talab etuvchi, qurg'oqchilikka chidamli bo'lgan dorivor o'simliklar bilan boyitish lozim;
- Yetishtirish texnologiyalarini tubdan o'rganib chiqib, oz yerdan ko'p miqdorda hosil olish y o'llarini tatbiq etish lozim;
- Mamlakatlar alohisiga ham dorivor o'simliklarni yetishtirish, ularni farqlash kabi elementar bilimlarni berish lozim, dorivor o'simliklar foydali bo'lishi bilan bir qatorda zararli turlari ham mavjud.
- Xalqaro bozorlarda yuqori talab ko'rsatayotgan mamlakat yoki kompaniyalarning talablarini chuqur o'rgangan holda, ular bilan savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yish lozim.

Qo'llanilgan manbalar ro'yxati:

1. Chandra P. mini review of challenges and directions for future research.// In Natural Resources Forum "The medicinal and aromatic plants business of Uttarak"- Oxford, UK: Blackwell Publishing Ltd, 2020, August. pp. –274-285
2. Dr.Dimitrios Argyropoulos (2019) EIP-AGRI Focus Group Plant-based medicinal and cosmetic products. University of Hohenheim, Research Center for Bioeconomy Wollgrasweg https://ec.europa.eu/eip/agriculture/sites/default/files/fg35_starting_paper_2019_en.pdf
3. Market Reports (2023) Newsmanttraa Herbal Medicines Market: The Global Market for Herbal Medicines https://www.reportlinker.com/p06031785/?utm_source=GNW
4. ReporterLinker(2023) Dried Herbs Global Market Report 2023: <https://www.globenewswire.com/news-release/2023/03/07/2622091/0/en/Dried-Herbs-Global-Market-Report-2023.html>
5. O'zbekiston milliy turistik markazi (2023) O'zbek dorivor o'simliklari.
6. <https://uzbekistan.travel/uz/o/ozbek-dorivor-osimliklari>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2022) Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida.
8. <https://lex.uz/ru/docs/-6027139>
9. "First international symposium on the conservation of medicinal plants in trade in Europe". United Kingdom Royal botanic gardens Kew//1998
10. Myles Mander "Janubiy Afrikada mahalliy dorivor o'simliklarning marketing" Rim. 1998-yil.
11. A.K.M. Shahidullah "Bangladeshda aholi turmush tarzini yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta'minlashda dorivor o'simliklarning roli". 2007-yil.
12. Michael Asigbaase "Dorivor o'simliklarni saqlash va ularning iqtisodiy foydalari: Janubi-g'arbiy Gananing o'rmon chekkasidagi jamoalardan olingan ma'lumotlar asosida" Trees, Forest and People// 2023-yil dekabr oyida <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2666719323000948>
13. Michael Asigbaase "Dorivor o'simliklarni saqlash va ularning iqtisodiy foydalari: Janubi-g'arbiy Gananing o'rmon chekkasidagi jamoalardan olingan ma'lumotlar asosida" Trees, Forest and People// 2023-yil dekabr oyida <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2666719323000948>
14. "An overview of some important deliberations to promote medicinal plants cultivation" Journal of Applied Research on Medicinal and Aromatic Plants Volume 31, December 2022, 100400
15. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S2214786122000328>
16. Shohana Parvin., Anika Reza., "Potential Role and International Trade of Medicinal and Aromatic Plants in the World"European Journal of Agriculture&Food Sciences ISSN(Online):2684-1827// <https://www.ejfood.org/index.php/ejfood/article/view/701>
17. Fact.MR (2024) "Medicinal Herbs Market" <https://www.factmr.com/report/4070/medicinal-herbs-market>
18. Michael Asigbaase "Dorivor o'simliklarni saqlash va ularning iqtisodiy foydalari: Janubi-g'arbiy Gananing o'rmon chekkasidagi jamoalardan olingan ma'lumotlar asosida" Trees, Forest and People// 2023-yil dekabr oyida <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2666719323000948>



19. Michael Asigbaase "Dorivor o'simliklarni saqlash va ularning iqtisodiy foydalari: Janubi-g'arbiy Gananing o'rmon chekasidagi jamoalardan olingan ma'lumotlar asosida" Trees, Forest and People// 2023-yil dekabr oyida <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2666719323000948>
20. Shohana Parvin., Anika Reza., "Potential Role and International Trade of Medicinal and Aromatic Plants in the World"European Journal of Agriculture&Food Sciences ISSN(Online):2684-1827// <https://www.ejfood.org/index.php/ejfood/article/view/701>
21. Fact.MR (2024) "Medicinal Herbs Market" <https://www.factmr.com/report/4070/medicinal-herbs-market>.
22. Fact.MR (2024) "Medicinal Herbs Market" <https://www.factmr.com/report/4070/medicinal-herbs-market>.
23. DBMR(2023) Global Medicinal Herbs Market – Industry Trends and Forecast to 2030//Healthcare.
24. <https://www.databridgemarketresearch.com/reports/global-medicinal-herbs-market>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.